

**QAYDNOMA №12**  
**2022 yil 29 iyun kuni soat 10:00 da o‘tkaziladigan**  
**ToshPTI Ilmiy Kengashining**

**QAROR LOYIHASI:**

**Kun tartibi:**

1. «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyati to‘g‘risida.

**Ma‘ruzachi: ToshPTI Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor M.A.Axmedova.**

2. Yangi 2022-2023 o‘quv yiliga tayyorgarlik to‘g‘risida.

**Ma‘ruzachi: ToshPTI O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor t.f.d., dotsent Q.N. Xaitov.**

3. Magistraturada o‘quv uslubiy ishlar holati hamda uni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

**Ma‘ruzachi: ToshPTI Magistratura bo‘limi boshlig‘i, t.f.d., dotsent Sh.S.Abdullaev.**

4. Professor va o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash.

1. Dadaev Shirin Amanovich – Xirurgik kasalliklari kafedrasini mudiri lavozimiga;

2. Ismailov Saydiganixodja Ibragimovich – Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi kafedrasini mudiri lavozimiga;

3. Yusupov Anvar Sabirdjanovich – Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasini dotsenti lavozimiga;

4. Yuldashev Baxrom Ergashevich – Biofizika, tibbiy informatika kafedrasini dotsenti lavozimiga;

5. Aliev Axmatdjan Lyutfullaevich – Fakultet pediatriya kafedrasini dotsenti lavozimiga;

6. Abdumadjidov Abdug‘ofur Shukurovich – Xirurgik kasalliklar kafedrasini dotsenti lavozimiga;

7. Ergashev Baxtiyor Berdalievich – Gospital bolalar xirurgiyasi kafedrasini professori, t.f.d., 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvoniga;

8. Abduraxmanova Nigora Nazimovna – Bolalar kasalliklari propedevtikasi, gematologiya kafedrasini dotsenti, t.f.n., 14.00.29 - Gematologiya va transfuziologiya ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga;

9. Xudoyberdiev Asomiddin Qurbonqulovich – Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasini dotsenti, f.f.n., 09.00.04 – “Ijtimoiy falsafa” ixtisosligi bo‘yicha dotsent unvoniga;

10. Lipartiya Meri Givievna – Bolalar kasalliklari propedevtikasi, gematologiya kafedrasini dotsenti, t.f.n., 14.00.14 - Onkologiya ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga;

11. Xotamov Xusnitdin Narzullaevich – Fakultet bolalar xirurgiyasi kafedrasini dotsenti, t.f.n., 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga;

12. Yakubov Erkin Amongeldievich – Gospital bolalar xirurgiyasi kafedrasini dotsenti, PhD, 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi ixtisosligi bo‘yicha

dotsent ilmiy unvoniga;

**13.** Jalolov Rustam Kuyjonovich – Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi kafedrası dotsenti, t.f.n., 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoniga.

**Ma'ruzachi: Saylov komissiyasi raisi.**

**5.** Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi: Ilmiy Kengash kotibi.**

**6.** Turli masalalar.

### **Ko'rib chiqildi:**

**Birinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, bo'yicha prorektor M.A. Axmedova «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyati to'g'risida.

#### **1 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, bo'yicha prorektor M.A. Axmedova. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyati to'g'risida:

Yurt kelajagi va Vatanimiz taqdiri, kelgusi taraqqiyotimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan Konstitutsiyamizga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha fakul'tetlar, kafedralar va guruhlar kesimida professor – o'qituvchilar va talabalar o'rtasida keng targ'ibot ishlari olib borilsin;

Mazkur jarayonda takliflar bilan faol ishtirok etilsin.

**Ikkinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent Q.N. Xaitov. Yangi 2022-2023 o'quv yiliga tayyorgarlik to'g'risida.

#### **2 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent Q.N. Xaitov. Yangi 2022-2023 o'quv yiliga tayyorgarlik to'g'risida:

“Yosh pedagoglar maktabi” o'z faoliyatini boshlaydi. Mazkur maktabda o'qitish 2 bosqichda amalga oshiriladi: 1-bosqich: 2022 yil oktyabrga qadar o'quv seminari sifatida o'tkaziladi; 2-bosqich: pedagoglarni o'zlashtirganlik darajasini monitoringini olib borish.

**Uchinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Magistratura bo'limi boshlig'i, t.f.d., dotsent Sh.S.Abdullaev. Magistraturada o'quv uslubiy ishlar holati hamda uni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

#### **3 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Magistratura bo'limi boshlig'i, t.f.d., dotsent Sh.S.Abdullaev. Magistraturada o'quv uslubiy ishlar holati hamda uni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida:

Magistrlik dissertatsiyalar mavzularini institut saytidagi kafedra sahifasida muntazam elon qilib borish;

Qabul bo'lmagan yoki kvota to'lmagan mutaxassisliklar bo'yicha tegishli kafedralar bakalavr talabalari bilan doimiy ishlab borish;

Magistrlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbar tayinlashda ohirgi 5 yil ichida himoya qilgan (PhD, DSc), lekin ilmiy unvon olmagan xodimlarni birinchi navbatda e'tiborga olish;

Magistraturaning iqtidorli talabalariga magistrlik dissertatsiyasi mavzusi berilayotganda keyinchalik ilmiy ishni tayanch doktoranturada davom ettirish mumkin bo'lgan mavzular berish;

Magistratura talabalarini kafedralardagi mavjud ilmiy loyihalar va grantlar tarkibiga kiritish.

**Turtinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi Saylov komissiyasi raisi V.K. Abdullaeva "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisobot berib o'tdilar.

**4 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

Saylov komissiyasi raisi V.K. Abdullaeva "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**Beshinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Ilmiy Kengash kotibi tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy tavsiyanomalarni o'qib eshittirdi. Ularning muhokamasi bo'lib o'tdi.

**5 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya va uslubiy tavsiyanomalar ovozga qo'yildi va bir ovozdan keyingi bosqichga tavsiya etildi.

**6. Turli masalalar.**

**Kengash raisi**  
**t.f.d., professor:**

**Kengash kotibi**  
**t.f.d., dotsent:**



**B.T. Daminov**

**J.B. Sattarov**